



FUQAROLIK JAMIYATI VA AXBOROT KOMMUNIKATSİYALARİ KATEGORİYALARI

Sherzodxon Qo'dratxo'ja,^{ID}

O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti

Annotatsiya: Ushbu maqolada fuqarolik jamiyatni va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari kategoriyalari demokratik va huquqiy davlatning muhim tarkibiy qismlari sifatida ko'rib chiqiladi. Muallif raqamli texnologiyalarning fuqarolik jamiyatni shakllanishiga ta'sirini tahlil qiladi, IKTning davlat hokimiyatining oshkoraligini ta'minlash, jamoatchilik nazoratini rivojlantirish va jamiyat hamda davlat institutlari o'rtaida aloqa o'rnatishdagi ahamiyatini ochib beradi. Shuningdek, maqolada fuqarolik jamiyatining strukturasiga oid nazariy yondashuvlar ham tahlil qilingan.

Kalit so'zlar : fuqarolik jamiyatni, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, demokratiya, markazlashtirmaslik, raqamli transformatsiya, institutlar, struktura.

Hozirgi davrga kelib jahonda fuqarolik jamiyatni va huquqiy davlatlar shakllanib, yanada rivojlanib bormoqda. XX asrning oxiri – XXI asrning boshlariga kelib axborot kommunikatsiyalarining takomillashib borishi fuqarolik jamiyatining rivojlanishiga kuchli ta'sir etdi. Jahonning rivojlangan mamlakatlarda fuqarolik jamiyatining asosiy vazifasi jamiyatdagi ijtimoiy qatlamlar manfaatlarini himoya qilish, ularni amalga oshirish shart-sharoitlarini yaratish, shuningdek davlat hokimiyati organlari faoliyatlari ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish hisoblanadi. Albatta, bu jarayonda zamonaviy axborot kommunikatsiyaları - aholi bilan "elektron hukumat" vositasida muloqotlarni rivojlantirish, jamiyatni axborot xurujlaridan himoyalash, nodavlat notijorat tashkilotlarning o'zaro va davlat organlari bilan kommunikativ aloqalarini uyuştirish, jamiyat va davlat boshqaruvida raqamli iqtisodiyotni joriy etish eng muxim va dolzarb vazifalar sirasiga aylandi. Jahonda 2022-yilda axborot texnologiyalari xarajaatlari hajmi 603 mlrd. AQSH dollarini tashkil etganligi, bu bir yil ichida 4,1 foizga o'sganligi (Qarang, 2023) fikrimizga dalildir.

Shu bilan birga, mamlakatda hozirgi davrda fuqarolik jamiyatini shakllantirishning asosiy omili darajasiga ko'tarilgan - aholini axborot kommunikatsiyalarini va texnologiyalari o'zida jamiyat institutlariga xos sifatlarni o'zlashtirdi. Fuqarolik jamiyatini barpo etishning sinonimi sifatidagi axborot jamiyatini qurish maqsadi tug'ilgani ham bejiz emas. Umuman olganda, mavzuni o'rganishning dolzarbliyi yana quyidagilar bilan belgilanadi:

- axborot kommunikatsiyalarining hozirgi davrdagi asosiy vazifasi – axborotlarni o'ta tezkorlik bilan ommabop tarzda, turli mafkuraviy qarashlardan holi ravishda yetkazish bo'lganligi uchun ham fuqarolik jamiyatining asosiy institutlaridan biri

DOI:
[https://doi.org/10.62499/
ijmcc.vi9.198](https://doi.org/10.62499/ijmcc.vi9.198)

Iqtibos:
Sherzodxon, Qo'dratxo'ja.
2025. FUQAROLIK
JAMIYATI VA AXBOROT
KOMMUNIKATSİYALARİ
KATEGORİYALARI
Markazi Osiyoda media va
kommunikatsiyalar xalqaro
ilmiy jurnal. 9: 83-85.

sifatida namoyon bo‘lmoqda;

- axborot kommunikatsiya vositalari hokimiyat organlar va fuqarolar o‘rtasidagi munosabatarni bog‘lab turuvchi vosita vazifasini bajarib, ular fuqarolarning turli manfaatlarini tashuvchi va ifoda etuvchi institut funksiyalarini bajara boshladi;

- jamiyatda axborot kommunikatsiya texnologiyalarini fuqarolik jamiyati institutlari boshqaruvi va faoliyatiga joriy etishga muhim e’tibor berilmoqda. Chunki ommaviy axborot vositalari fuqarolarning siyosiy ijtimoiylashuvi tezlashayotgan bir davrda, ularning ongi, qarashi va yangi axborotlar olishga intilishlari kuchayib borishini taqozo etmoqda. Shu bilan birga, mamlakatda fuqarolik jamiyatini rivojlantirishda axborot kommunikatsiyalarini joriy etish sur’atlarini tezlashtirish Yangi O‘zbekiston va uchinchi Rennesans poydevorini qurishning tarkibiy qismlaridan biri sifatida e’tirof etilmoqda.

Hozirgi davrda g‘arb davlatlarida fuqarolik jamiyati institutlarining rivojlanib borishi bilan davlat boshqaruvini nomarakazlashtirish (detsentralizatsiyalash) uchun ijtimoiy, iqtisodiy va psixologik shart-sharoitlar yaratiladi. Bu jarayon davlat boshqaruvini erkinlashtirish (liberallashtiish) va ma’muriy islohotlarning eng asosiy sharti hamdir.

Fuqarolik jamiyati shakllanib borgani sari mansabdorlar faoliyatini milliy manfaatlar, jamiyat baroqarorligi va xalq farovonligi asosida kechishi uchun shart-sharoitlar shakllanib boradi. Chunki, jamiyatning manfaatlari bilan shaxsning manfaatlari uyg‘unlashgan fuqarolik jamiyati sharoitida fuqarolarning huquqlar ham manfaatlar asosida insoniy birliklarga uyushish va shu asosda hokimiyat organlarini nazorat qilish, ularda ishtirok etish mayllari shakllanib va o‘sib bordi.

Fuqarolik jamiyati sharoitida markaziy hokimiyatda milliy manfaatlar bilan bog‘liq yirik vakolatlardan boshqasi mahalliy hokimiyat organlari va fuqarolik jamiyati institutlariga uzatiladi. Hududiy o‘zini o‘zi boshqarish organlari, o‘z navbatida, fuqarolarning ixtiyoriy birlashuvi o‘z zimmasiga olmagan yoki u rad etganidan boshqa vakolatlarni amalga oshira boshladi. Bu holatda konsensusga erishish prinsipiga asoslanildi. Bu prinsip ko‘pincha ma’muriy shartnomalarda ifodalana boshlaydi.

Rivojlangan mamlakatlarda huquqiy davlatning paydo bo‘lishi fuqarolik jamiyati tushunchalarini talqin etishga ham kuchli ta’sir etdi. Jumladan, fuqarolik jamiyati tushunchasini keng va tor ma’nolarda ishlatish rusumga kirdi. Keng ma’nodagi fuqarolik jamiyati - davlat va uning tizilmalari tomonidan jamiyatni egallab olmagan qismi, boshqacha aytganda, davlatning qo‘li yetmagan qismidir. Bu kabi jamiyat davlatga nisbatan avtonom, bevosita unga qaram bo‘lmagan qatlama sifatida rivojlandi. Shuningdek, fuqarolik jamiyati keng ma’noda faqat demokratik qadriyatlari

muhitidagina emas, balki avtoritarizm rejimida ham yashay oladi. Lekin, totalitarizmning paydo bo‘lishi bilan fuqarolik jamiyati siyosiy hokimiyat tomonidan butunlay «yutib» yuboriladi.

Fuqarolik jamiyatni tushunchasi tor ma'noda talqin etilganda, u huquqiy davlatning ikkinchi tomoni bo'lib, ular bir-birlarisiz yashay olmaydi. Fuqarolik jamiyati bozor iqtisodiyoti va demokratik huquqiy davlat sharoitida davlat tasarrufida bo'limgan erkin va teng huquqli individlarning o'zaro munosabatlaridagi pluralizmdan tashkil topadi. Bunday sharoitlarda jamiyat sohalariga xususiy manfaatlar va individualizmning erkin munosabatlari qamrab olinadi. Bu kabi jamiyatni

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

Differensiatsiya [fr. differentiation < lot. differentia farq qilish, tafovut] - 1)bir butunning turli qismlar, shakllar va darajalarga bo'linishi, ajralishi, parchalanishi.

Qarang: Osnovi politicheskoy nauki. Chast I. Pod.red. V.P.Pugacheva.-M.: MGU im. M.V.Lomonosova, 1996. -B.219-221.

Kartashov, V.N. Grajdanskoye obshchestvo kak sistema (sotsialno-pravovoy aspekt)/V.N. Kartashov // Vestnik Yaroslavskogo gosudarstvennogo universiteta im. PG Demidova –2009 –№1 –S. 37-43

Reznik, Yu.M. Formirovaniye institutov grajdanskogo obshchestva (sotsioinjenerniy podxod) / Yu.M. Reznik // Sotsis. – 1994. – №10. – S. 21 – 30.

CATEGORIES OF CIVIL SOCIETY AND INFORMATION COMMUNICATIONS

Abstract: This article explores the categories of civil society and information and communication technologies (ICT) as essential components of a democratic and legal state. The author analyzes the impact of digital technologies on the development of civil society and highlights the role of ICT in enhancing government transparency, strengthening public oversight, and facilitating communication between state and civil institutions. The article also delves into theoretical approaches to the structure of civil society and its institutional framework in contemporary conditions.

Keywords: civil society, information and communication technologies, democracy, decentralization, digital transformation, institutions, structure.

About the author:

QUDRATXOJA Sherzodhon — doctor of political science, rector of the University of journalism and mass communications of Uzbekistan, sherzodxon.qudratxoja@jmcu.uz